

**QORAXONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI, O'SHA  
DAVRDAGI, MUSIQIY VA MADANIY HAYOT VA O'SHA DAVRDA  
YASHAB O'TGAN MUSIQASHUNOS OLIMLAR.**

---

*Xomidov Zokir Djurakulovich*

*Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti*

*"An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari"*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

*zokirjonxamidov03@gmail.com*

*Abduraimov Ozod Vohid o'g'li*

*Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti*

*"An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari"*

*kafedrasi talabasi Email:abduraimovozodebek05@gmail.com*

**Anotatsiya:** Qoraxoniylar davridagi musiqiy va madaniy hayot, O'sha davrda yashab o'tgan turli sohadagi sharq olimlari, Xo'ja Abdulqodir Maro'g'iyning musiqaga qo'shgan ilmi, Safiuddin Urmaviy va Mahmud Sheroziyning hayoti va ijodi.

**Абстракт:** Музыкальная и культурная жизнь в эпоху Карабаханидов, учёные Востока в различных областях, жившие в тот период, знания о вкладе Ходжи Абдулкадира Мароги в музыку, жизнь и творчество Сафиуддина Урмави и Махмуда Ширази.

**Abstract:** Musical and cultural life during the Karakhanid period, Oriental scholars in various fields who lived during that period, the contribution of Khoja Abdulkadir Maroghi to music, the life and work of Safiuddin Urmavi and Mahmud Shirazi.

**Kalit so'zlar:** Urmaviy, Mahmud Sheroziy, Abdulqodir, musiqa va risola, maqola, muqaddima, fas, bastakor Qoraxoniylar, Buxoro, Yettisuv, yurish qilishadi, Temuriylar.

**Ключевые слова:** Урмави, Махмуд Ширази, Абдулкадир, музыка и трактат, статья, введение, фас, композитор Карабахиды, Бухара, Семь вод, поход, Тимуриды.

**Keywords:** Urmavi, Mahmud Shirazi, Abdulkadir, music and treatise, article, introduction, fas, composer Karakhanids, Bukhara, Seven Waters, marching, Timurids

X asr oxirida Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida «podshoh yag'ma» yoki «elikxon» boshchiligidagi qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Turkiy millatlar – qorluqlar, chigillar, arg'ular, yag'malar va boshqa xalqlar kirgan bo'lib, ular 960-yilga qadar islom dinini qabul qilganlar. 992-yili Elikxon Bug'ra boshchiligidagi qoraxoniylar qo'shini Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qoraxoniylar g'alabasiga

Bug‘raxon bilan Xurosonning Somoniy hokimi Abuali Simjur o‘rtasida tuzilgan hufyona ittifoq hamda lashkarboshi Foiqning sotqinligi sabab bo‘lgan. Natijada Qoraxoniylar Buxoroni jangsiz ishg‘ol etadilar, amir Nuh esa Chorjo‘yga qochishga majbur bo‘ladi. Ammo Bug‘raxon kasallanib, o‘z vatani Koshg‘arga ketayotganda vafot etadi. Qoraxoniylar Buxorodan katta o‘lja bilan qaytadilar. Qoraxoniylarning yangi yo‘lboshchisi bo‘lgan Elikxon Nasr Buxoroga qayta hujum uyshtiradi. 999-yili Qoraxoniylar yana Buxoroni yana ishg‘ol etib, amir Abdul Malik II va podshoh oilasini asirga oladilar.

Qoraxoniylar davlati Koshg‘ardan Amudaryogacha cho‘zilgan Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg‘ona va qadimgi So‘g‘d yerlarini o‘z ichiga olgan. 1005-yilgacha Somoniylarning so‘nggi vakili al-Muntasir qoraxoniylar bilan muvaffaqiyatli kurashgan. Movarounnahr zabit etgach Qoraxoniylar dehqonlar tabaqasini yakson etdilar va ularning yerlari va suvlarini davlat tasarrufiga topshirganlar.

Elikxon Nasr 1012-yili vafot etgach, uning davlatiga ukasi Ali Tegin vorislik qiladi. Qoraxoniylar Amudaryo vodiysi yerlari uchun g‘aznaviyalar davlatiga qarshi muntazam urushlar olib borishadi, XI asr oxirida esa saljuqlarning kuchaygan davlatiga tobe bo‘lib qoladi. Elikxon poytaxti dastlab Uzgenda joylashgan, so‘ngra Samarqandga ko‘chirilgan. Buxoro ham Samarqandga tobe bo‘lgan. Qoraxoniylar Samarqandda, Buxoroda, ko‘plab binokorlik ishlarini amalga oshirishgan, saroylar, masjidlar va madrasalar bunyod etishgan, musulmon dini nufuzini saqlash va mustahkamlashga hissa qo‘shishgan.

XIII-XIV asrlardagi O‘rta Osiyo xududidagi o‘zaro nizolar madaniyatning taraqqiy etishiga xalal yetkazdi. Ayniqsa mo‘g‘ullar istilosini davri (13-asr) da, ya‘ni yirik shaharlar, jumladan Buxoro to‘la yoki qisman vayronalikka uchragan davrda madaniy hayot susaydi. O‘rta Osiyo Temur hokimiyati ostiga birlashtirilishi munosabati bilan XIV asrning ikkinchi yarmidan oq madaniyat va san’atda yangi yuksalish boshlandi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida O‘rta Osiyo juda katta tashqi mavqeyga ega bo‘ldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti Samarqand hamda Temuring ona shahri Kesh (Shahrisabz) ulkan qurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Temur turli xil hunarmandlar, jumladan musiqachilarni ham keltirgan edi. O‘scha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jo‘rligida o‘tkazilgan. Masalan, hofizi Abro‘yozadi: «Xushovoz hofizlar va shirinnavoz sozandalar esa fors namunalari, arab ohanglari, turkiy an'analar, mo‘g‘ul ovozlari, xitoyliklar (ashula aytish) qonunlari va oltoyliklar o‘lchovlari asosida kuy chalib, qo‘shiq aytar edilar». Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan

musiqa risolasining muallifidir. Abdulqodir madhiya xarakteridagi («Mayatayn») musiqa asari ham ijod qilgan.

Risolada tarje', peshrav va boshqa bir qator bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqa janrlari ham eslatib o'tilgan. Saltanatning bosh sozandasini Xoja Abdulqodir Marog'iy bo'ldi. U o'z davridayoq "sohibi advor" ("advor egasi"), "saromadi advor" ("advor ilmining eng oldingi vakili") degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. Temuriylar davri madaniyatining ko'rki hisoblangan Abdulqodir ijodi nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Musiqashunoslik borasida XX asrning yirik olimlaridan biri Genri Jorj Farmerning ta'kidlashicha, u Forobiy, Ibn Sino va Safiuddin Urmaviy bilan bir qatorda Sharq musiqa ilmining asosiy ustunlaridan hisoblanadi. Marog'iy – zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Maqasid ul-ilqon", "Jome' ul-alqon" va boshqa musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi- go'yanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir ollyjanob namunalar ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" ("arabcha lug'aviy ma'nosi ikki yuz") deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uningdovrug'i keyingi vaqtarda ham pasaygan emas. Yoki bo'lmasa, u paytlarda klassik musiqaning eng murakkab turlaridan biri – "navbati murattab" (tartiblashgan navbat) bo'lgan.

X asrda yashab ijod etgan jo'g'rofiy olimlar Xorazmning dehqonchiligi rivojlangan, shaharlari ko'p va madaniyati yuksak mamlakat sifatida ta'riflashadi. Ali ibn Ma'mun (997-999) davrida Urganchda ikkita ajoyib saroy qurildi. Abul Abbas Ma'mun (999-1016) o'z saroyida Ma'mun akademiyasi – "Bayt-ul hikma"ni ta'sis etib, atrofiga turli sohaga mansub mashhur sharq olimlarini to'playdi.

Bu erda Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, mashhur tabib Abulkayr Hammor va boshqa atoqli olimlar shug'ullanishadi. Beruniy "Ma'mun akademiyasi"ning yetakchi a'zosi bo'ldi. Safiuddin Abdulmo'min bin Yusuf bin Faxir al-Urmaviy al-Bag'dodiy o'rta asrlar musulmon sharqi xalqlarining buyuk musiqashunos olimi va bastakori edi. U SHarq musiqa ilmining Forobiy va Ibn Sinodan keyingi eng yirik namoyandasi hisoblanadi. Uning "Kitobul-advor" ("Musiqa va ritm doiralari kitobi"), "Risalatush-SHarafiya" ("SHarafli risola") asarlari SHamsiddin Atoulmulkning o'g'li SHarafiddinga bag'ishlab yozilgan. Bu ikki asar Urmaviyning musiqaga oid eng mashhur asarlaridir. Urmaviy birinchi bo'lib, 17 pardali ud cholg'usining tovushqatorini tartibga keltirdi. Urmaviyning iyqo' ta'limoti o'z davri

musiqa amaliyotining ritmik tizimiga asoslanadi. U barcha usullarni 6 xil davrlarga ajratadi ularga: saqili avval, saqilus-soniy, hafifus-soniy, ramal, xafifur-ramal, xazaj.

Mahmud bin Mas'ud Qutbiddin SHeroziy zamonasining ulkan musiqa olimi edi. Uning hayoti mo'g'ul istilosini bilan bog'liq bo'lgan murakkab davrlarda kechadi. Alloma SHeroz shahrida dunyoga kelib, boshlang'ich ma'lumotni ma'rifatli ziylolardan bo'lgan otasidan oladi. Uning asosiy asari "Durratut toj li-g'urat-tid deboj" qomusidir. Tili forscha nusxaning "Dar ilmi musiqiy" bo'limi riyoziy fanlar qatoriga kiritilgan. Bo'lim muqaddima va 5 maqoladan iborat. Muqaddimada Sheroyi musiqiy va tabiiy tovushlarning estetik xususiyatlarini mubohasa etadi.

1-maqola 10 fasldan iborat bo'lib, unda musiqaning kelib chiqishi, musiqa ilmining mazmuni, uning sohalari, musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida so'z yuritiladi.

2-maqola ham 10 fasldan iborat bo'lib, unda pardalar, tovushqatorlar tartibi, ularning matematik ko'rsatkichlari, muloyim va mutanofir sabablari, darajalari, intervalning ta'rifi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

3-maqola 10 fasldan tarkib topib, unda asosan intervallarning tuzilishi, turlari haqida so'z yuritiladi (bunda SHeroziy Forobiy nazariyasiga to'la tayanadi).

4-maqola 4 fasl va xotimadan iborat. Dastlabki 4 faslda SHeroziy jins va jam'larning hosil bo'lishi, ularning turlari, tabaqot (registr)ni tushuntiradi. Xotima qismi 11 mubohasadan iborat. Unda muallif cholg'u turlari, ularning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirib, nazariy mashg'ulot uchun udning afzalligini e'tirof qiladi. Bunda SHeroziy 17 pardali tovushqator tizimidan 12 advor (maqom) va 24 sho'ba turkumini aniqlaydi.

5-maqola 7 fasl va xotimadan tuzilgan. Unda musiqiy ritmika masalalari o'rganiladi. Bu borada SHeroziy Forobiy nazariyasiga asoslanadi va 18 iyqo' davrlarini batafsil sharhlab o'tadi. Xotima qismida esa kuylarning yozuv usullari-notatsiyalar masalasi yoritiladi.<sup>1</sup>

Maqomshunos olim I.Rajabov ta'kidlaganidek, "Mahmud SHeroziyning musiqa risolasi o'zining to'laligi, chuqur ilmiy asosda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu asarda Forobiy zamonasidan to XIV asr boshlariga qadar bo'lgan sharq musiqa nazariyasining tarixiy taraqqiyot yo'li o'z ifodasini topgan"

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Botirova Xilola Tursunboyeva Andijon 2021
2. O'zbek musiqa adabiyoti.
3. O.Akbarov. Pedagogik amaliyot. «Istiqlol», T., 2005